

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqarilgan

2005-yil 14 - 20 - noyabr N:46 (66535)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq
Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar
Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» Hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro
xayriya jamg'armasi.

SAHIFALARDA



USTOZLARNI QADRLAYLIK

2-BETDA

CHET ELDAN HECH KAMI YO'Q

4-BETDA



Sharof MUQIMOV:

CHEKISH HUSNNI BUZADI

8-BETDA

FARZANDLARI SOG'LOM YURT

Yo'lim tushib, poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan 248-maktabga borgandim. U yerdagi turli to'garaklar faoliyatini kuzatib, sport bellashuvlarini tomosha qilib, o'quvchilar bilan suhbatlashib, vaqtning qanday o'tib ketganini sezmay qolibman. 1975 - yilda qad rostlagan mazkur bilim maskanida tahsil olayotgan 1600 nafar o'g'il-qizga 67 nafar tajribali ustoz va murabbiylar ta'lim-tarbiya berisharkan. O'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarini maroqli va mazmunli o'tkazishlari uchun ham barcha sharoitlar yaratilganligining guvohi bo'ldim. Maktabga Zohida opa Ismoilova rahbarlik qila boshlaganiga hali unchalik ko'p vaqt bo'lmabdi. Lekin shu oz fursat ichida bu yerda talaygina ibratli ishlar amalga oshirilibdi. Opaning sa'y-harakatlari bilan qayta ta'mirlangan sport zali bolajonlarning eng sevimli maskaniga aylanibdi. Faqat sport anjomlarining yetishmasligi, futbol maydonchasiga chim yotqizilmaganligi tengdoshlarimizni biroz ranjitarkan-da. Chet tillarini puxta o'rganishga astoydil bel bog'laganlar "Til o'rganamiz" to'garagiga qatnasalar, jahon va O'zbekiston tarixiga qiziquvchilar "Umumiy tarix" to'garagining faol



Yulduzxon maktabi keza

a'zolariga aylanishgan. Shuningdek, maktab qoshida ochilgan "Bichish-tikish", "Fizika va hayot", "Tasviriy san'at" kabi to'garaklar ham doimo o'quvchilar bilan gavjum bo'larkan.

Men ana shu to'garaklarga



Men Behzod Doniyev shu maktabning 9-"B" sinfidagi tahsil olaman.

Jahon hamda yurtimiz tarixini o'rganishga juda qiziqaman. Bu boradagi bilimlarimni yanada boyitish maqsadida maktabimiz qoshidagi "Umumiy tarix" to'garagiga a'zo bo'lganman. Bor bilimim bilan diyorimiz ravnagiga o'z hissamni qo'shsam, deymen. Axir yurtboshimiz ham bejiz tarixsiz kelajak yo'q, deb ta'kidlamaganlar-ku.

muntazam qatnashib kelayotgan bir necha tengdoshlarimni suhbatga tortdim:

Tengdoshlarim so'zlarini tinglarkanman, barcha sharoitlari muhayyo bo'lgan maktablari borligiga, maktabning esa shunday bilimga tashna, maqsad sari intilib yashayotgan o'quvchilari mo'lligiga juda havasim keldi.

Darvoqe, eng asosiysini unutay debman: ayni kunlarda maktabda turli nashrlarga obuna ishlari qizg'in davom etayotgan ekan. Jumladan, «Tong yulduzi»ga ham. Har bir sinfdan 10 nafar o'quvchi aynan shu gazetaga yozilishibdi.

Demak, 248-maktabdan 120 nafar o'quvchi «Tong yulduzi»ga obuna bo'libdi. Bu raqamni respublikamizdagi ja'mi maktablar misolida hisoblasak, eh-he...

O'quvchilarimiz orasida «Tong yulduzi»ning muxlislari

Yurtboshimizning "Farzandlari sog'lom yurt" qudratli bo'lar" degan gaplarini o'zinga shior qilib olganman, deydi shu sinf o'quvchisi Sultonxo'ja Dadaboyev. Sog'lom bo'lishimiz uchun esa sport bilan muntazam shug'ullanishimiz lozimligini ham yaxshi bilaman. Maktabimiz qoshidagi boks to'garagiga qatnayman. Keyinchalik mohir bokschi bo'lishni, dunyo miqyosidagi musobaqalarda qatnashib, O'zbekistonimiz bayrog'ini baland ko'tarishni niyat qilaman.

ko'pligidan behad mamnunmiz, deydi maktab direktori Zohida opa Ismoilova. Chunki gazeta sahifalarida farzandlarimiz ma'naviyatini boyitadigan, dunyoqarashini kengaytiradigan, tengdoshlari amalga oshirayotgan ibratli ishlardan xabardor qiladigan maqola va lavhalar ko'plab chop etiladi. Muhimi, ularning darsdan bo'sh vaqtlari maroqli va mazmunli o'tadi...

Xo'sh, aziz tengdoshlarim, bu borada Sizning maktabingizda qanday yangiliklar bor? «Tong yulduzi» obunachilari soni nechtaga yetdi? O'zingizchi, obuna bo'ldingizmi? Hali ulgurmagan bo'lsangiz, shoshiling!



Men esa ustozimiz Saodat opa Toirova boshchiligidagi "Chizmachilik va tasviriy san'at" to'garagiga a'zoman, deydi 9-"B" sinf o'quvchisi Faxriddin Shukurov.

Maqsadim - baland-baland osmono'parchiroyli binolarning chizmalarini chizib, poytaxtimiz ko'rkiga ko'rk qo'shish.




USTOZLARNI QADRLAYLIK

“Ustoz ulug‘ zot, ularni qadrlaylik” deymiz-u, ammo bu gapga hammamiz ham amal qilavermaymiz. Men ham shunday edim. Ammo hozir ustozlarning qadriga yetib qolganman. Bunga esa ikki qadrdon ustozimiz – tarix fanidan saboq beradigan Dono opa Sodiqova hamda adabiyot o‘qituvchimiz Sayyora opa Aliyevaning boshqa maktabga ishga o‘tib ketishgani sabab bo‘ldi.

Nazarimda, biz ularni yetarlicha qadrlay olmagandik. Maktabimni ham shu ustozlarim tufayli yaxshi ko‘rishimni endi anglab yetyapman. Ularning bilim darajalari yuqori, o‘quvchilarga o‘rnak bo‘ladigan tomonlari juda ko‘p edi. Shirin so‘zlari-yu iliq tabassumlari bilan barcha o‘quvchilar qalbiga yo‘l topa olishgandi ular. Hozir ustozlarimiz Tibbiyot kollejida dars berishayotgan ekan. Mening u yerda o‘qiydigan talabalarga juda havasim kelayapti. Chunki ular haqiqiy xazinaga ega bo‘lishdi. Endi maktabimizdagi boshqa jonkuyar o‘qituvchilarni ham yo‘qotib qo‘ymaslik uchun fanlarni astoydil o‘qishga harakat qilayapmiz. Aziz tengdoshlar, sizlarga ham maslahatim shu – ustozlaringizni hurmat qiling, qadriga yeting. Birgina og‘ir so‘z bilan qalblarini jarohatlab qo‘ymang. Chunki ular ham onajonlarimiz kabi aziz va ardoqlidirlar.

Ma‘fura JAMOLIDDINOVA,
Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi
29- maktabning 9-“A” sinf o‘quvchisi.



Ustozlarimni qadrlaylik

Salom mening sevimli gazetam! Men ham sening ashaddiy muxlislaringdan biriman. Ammo hech bir soningni na maktabimiz kutubxonasidan va na do‘konlardan topa olmayapman. Chunki bu yil hech kim obuna bo‘lmagan ekan. Sarson bo‘layotganimni ko‘rgan buvijonim o‘z nafaqa pullariga meni 2006-yil uchun senga obuna qilib qo‘ydilar. Kelasi yildan boshlab har dushanba eshik qoqib kelishingni o‘ylasam, sevinchim ichimga sig‘may ketyapti. Yangi yilda diydorlashguncha xayr, aziz gazetam!

Xulkaroy G‘ULOMOVA,
Andijon viloyati, Bo‘z tumani.

MAYDANAK-DA AMALIYOT

Baland tog‘li Maydanak observatoriyasi Qashqadaryo viloyatida joylashgan. Astroiqlimining shaffofligi, tiniqligi maxsus qurilmalar yordamida tekshirilganda O‘rta Osiyoda yagona maskan ekanligi isbotlangan. Shu bois 1960- yilda uning qurilishi boshlangan. Maydanak observatoriyasida Moskva Davlat Universitetining malakali xodimlari ish olib borishgan. Dastlab bu yerga Germaniyada yasalgan 600 mm.li teleskop refektor o‘rnatilgandi. Keyin esa Latviya, Litva, Ukraina astronomlari tomonidan teleskoplar qurildi. Bu teleskoplar zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan bo‘lib, uzoqdagi ob‘yekttni tasvirini to‘g‘ridan-to‘g‘ri kompyuterlarga bera oladigan PZS priyomniklari (zaryad bilan bog‘lovchilari) mavjud. Bu priyomniklar stabilligi, katta hajmga va yuqori xotiraga egaligi bilan boshqa priyomniklardan ustundir. Biz ham o‘z o‘quv amaliyotimizni o‘tash uchun ushbu observatoriyaga yo‘l oldik. Bu yerning tabiati, havosining tozaligi bahri-dilimizni ochar, zamonaviy teleskoplarda olib borayotgan ishlarimiz esa qiziqishimizni yanada oshirardi. Biz qo‘shni davlatlardan keltirilgan teleskoplar bilan tanishish jarayonida ularni ishlatish usulini ham o‘rgandik. Amaliyot rahbarimiz Asqar aka Mirzayev yordamida sayyoralar, yulduzlar va ko‘plab osmon jismlari harakatini o‘rgandik. Tog‘ bag‘ridagi shifobaxsh o‘simliklardan namunalar to‘plab, bir olam taassurotlar bilan uyimizga qaytdik.

Yulduz ABDULLAYEVA,
O‘zMU talabasi.

BIZGA SVETOFOR KERAK

Dugonam ikkimiz maktabdan qaytayotsak, bizdan avvalroq 1-sinfda o‘qiydigan bir bolakay katta ko‘chani kesib o‘ta boshladi. Shu payt katta tezlikda kelayotgan mashina uni urib yuboray dedi. Yaxshiyamki, dugonam chaqqonlik bilan bolaning orqasidan tortib qoldi. Aks holda...

Nima bo‘lganini tushunib-tushunmay gangib turgan haligi bolani o‘rtoqlari “anqov, anqov” deya mazax qila boshlashdi.

Menimcha, ayb bolakayda emas, balki ko‘chamizga svetofor qo‘yilmaganligidadir. Ustozlarimiz bizga yo‘l harakati qoidalarini juda yaxshi o‘rgatishadi. Svetofor bo‘lsa uning chirog‘iga qarab bimalol yo‘ldan o‘taveramiz. Qolaversa, maktabimizdan sal naridagi bolalar bog‘chasi kichkintoylari ham mana shu yo‘ldan o‘tadilar. Nahotki mashinalar serqatnov bo‘lgan katta yo‘lning kuniga minglab bolalar kesib o‘tadigan mana shu qismiga bittagina svetofor o‘rnatishning iloji bo‘lmasa?!

Gulira'no MUSAYEVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 186 - maktabning
4 - “B” sinf o‘quvchisi.

Jahon mumtoz musiqasi tarixida Germaniya alohida o‘ringa ega. Yaqinda mumtoz musiqa darg‘alariga beshik bo‘lgan bu mamlakatda o‘zbek san‘atkorlari ijodiy safarda bo‘lib qaytdilar. Xorazmlik qizlar va qoraqalpog‘istonlik baxshi ayollardan iborat guruhning san‘atini ko‘rgan olmonlar ularni «o‘zbek malaklari bazmi»da ishtirok etganliklarini mamnuniyat bilan ta’kidladilar.

MALAKLAR BAZMI

O‘zining sho‘x va o‘ynoqi lapar-u dostonlariga «Xivadan oldirgan garmon so‘zini» jo‘rt etgan Dilbarjon Bekturdiyeva, vazmin va nafis kuylari bilan moziydan darak bergan dutorchi qiz Go‘zal Mo‘minova, nolishli qo‘shiqlarini dutorning nolasiga qorishtirgan Ziyoda Sheripova, g‘ijjakchi opamiz Injigulning Orol bag‘ridan sitilib chiqayotgandek mahzun kuylari olmon san‘at shinavandalari ko‘nglidan bir umrga joy oldi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Buni Germaniya matbuotida, jumladan, «Westdeutsche Zeitung» gazetasi va Kempen shahrining «Rheinische Post» jumallarida chop etilgan maqolalarda ham ko‘rish mumkin. Germaniyaning «Alba Kultur» va «Klangkosmos» konsert birlashmalari tomonidan tashkil etilgan mazkur konsert dasturiga o‘zbek san‘atining haqiqiy xorijlik shaydolari yig‘ilganidan va san‘atimiz yana bir bor olqishlarga sazovor bo‘lganidan xursand bo‘ldim. Shu quvonchdan siz ham bahamlashing, aziz o‘quvchi...

Olima NABIYEVA.

Tengdoshingiz Sevara Toshpo‘latova Shayxontohur tumanidagi 299 - maktabning 11-sinfida o‘qiydi.

Bitiruvchi sinf bo‘lgani uchun ham hozir puxta bilim olish, imtihonlarga astoydil tayyorlanish bilan band. Lekin jamoat



DO‘STLARIMGA O‘RGATAMAN VA O‘RGANAMAN

ishlarida

ADAJONIMGA

Siz hayotim quyoshisiz,
Orzularim yo‘ldoshi.
Siz qalbimning madorisiz,
Oilamizning boshi.
Yaxshi kunlar nasib bo‘lsin,
Yomon kunlar hech qachon.
Baxtimizga omon bo‘ling,
Bardam yuring dadajon.
Muborakbod etar bugun,
Sizni o‘g‘il-qizingiz.
Ulg‘ayganda hecham erga,
Qaratmaymiz yuzingiz.
Chinor kabi umr ko‘ring,
Lek qalbingiz bo‘lsin yosh.
Onam bilan qo‘shaqarib,
Bo‘lib yuring bizga bosh.

Sevara TOSHPOLATOVA.

qatnashishga ham, uy yumushlariga ko‘maklashishga ham fursat topayapti. Maktabida «Kamolot» tashkilotining “Ma’naviyat” bo‘limi sardori, “Qizlar klubi” raisi bo‘lsa, uyida uch o‘g‘il ichida yolg‘iz qiz bo‘lgani uchun ham oyijonisining eng yaqin yordamchisidir. Suxandonlik va jurnalistikaga mehri bo‘lakchaligi bois maktab qoshidagi “Istiqlol g‘unchalari” radioeshittirishini ham olib boradi. Dugonalari Fazilat va

Shahlolardan pishiriqlar pishirish va tikuvchilik sirlarini o‘rganyapti. O‘z navbatida ularga ham «ustoz»lik qilib, to‘quvchilik va chet tilini o‘rgatyapti. Sevimli mashg‘ulotlari – raqsga tushish, to‘quvchilik, shirinliklar pishirish, yangi liboslar yaratish, chet tillarini o‘rganish, yana she‘rlar ham mashq qilib turadi.

– Orzularim juda mo‘l. Shuning uchun ham o‘ta intiluvchan, tirishqoqman. Kelajakda mohir jurnalist bo‘lib, elimga xizmat qilish niyatidaman.

Biz ham Sevaradan ajoyib she‘rlar, dolzarb mavzudagi maqolalar kutib qolamiz.

Ma’suda VOHIDOVA.

KOMPYUTER BIZGA CHO'T EMAS...

Shayxontohur tumanidagi 262- maktabda har oyda o'quvchilardan 1000 so'mdan pul yig'ilar ekan. Nima maqsadda, deysizmi? Maktab uchun bittagina kompyuter sotib olish uchun. Maktabda kam deganda ming nafarcha o'quvchi o'qiydi. Ana shu o'quvchilarning yil davomida yiqqan pullari qancha bo'lishini bir tasavvur qilib ko'ring-a? Maktablarga davlat tomonidan mablag' ajratilishini hammamiz yaxshi bilamiz. Shunday bo'lsa-da, so'ralgan pulni jimgina berib yuboraveramiz. Sinf xonalarini ta'mirlash, parda, gul, kitob sotib olish uchun pul yig'lsa, tushunish mumkin. Lekin bu holatni qanday tushunmoq kerak?

Bu savolimizga ana shu maktab rahbari qanday javob berarkinlar-a?

SHUNAQASI HAM BO'LARKAN-DA



Yozgi ta'tilda mahallamizdagi barcha o'quvchilarni ingliz tilini o'rganishga taklif qilishdi. Albatta darslar bepul edi. Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q, deganlaridek bolakaylar 2-3 ta darsga qatnashdi, xolos. Darslar mahallamiz yaqinidagi 299- maktabda bo'lsa ham borishmadi-ya, deya juda achindim. Shu bilan maktab ham boshlandi...

Bir- kuni ikki qo'shnimiz xursand, hammaga nimanidir maqtanishyapti. Qiziqib ularning oldiga bordim. Qarasam qo'llarida «Ingliz tili kurslariga oid dastur bo'yicha 48 soatlik ta'lim oldi» degan yozuvi bor sertifikat. Unda kengash raisining imzosi hamda Toshkent shahar «Kamolot» bo'limining muhri ham turibdi.

Hayron qoldim, shunaqasi ham bo'larkanda-a?

KIMGA «BESH» KERAK?

Ba'zi o'qituvchilarning shu savoli menga hech yoqmaydi-da. Biror bir vazifani bajarsang bo'lgani, chorakka besh. Qanday vazifa ekanini tushunib turgan bo'lsangiz kerak. Xullas, maktablarda «beshchilar» ko'payib ketgan. Oldindan besh olishini biladigan o'quvchilar esa umuman darsda jim o'tirisholmaydi. Ularni tinchlantirish uchun o'qituvchining asablari buzilib ketadi. O'zaro hurmat haqidaku umuman gap ham bo'lishi mumkinmas. Baholar tayin bo'lgandan keyin dars o'tishdan na hojat?

Ingliz tili o'qituvchisining quyidagi gaplariga bir quloq tuting-a:

– Bir kuni o'quvchilarni tinchlantirilmay, xo'rligim kelib, direktor oldiga tushdim. Bunday sharoitda dars o'tolmasligimni aytdim. Direktor esa, dars o'tish shart emas, bir soat xonada olib o'tirsangiz bo'ldi, – dedi.

Maktab rahbariki shunday deb turgandan keyin...



“2”NING KVADRATI “6”MI?

Xullas, olti yildan buyon ona tilidan dars berib kelayotgan o'qituvchi matematikadan dars bera boshlabdi.

Bu holdan ranjigan o'quvchilar bir kuni o'qituvchiga savol berishibdi: “Ustoz, “2” ning kvadrati necha bo'ladi?” “6” deb javob beribdi haligi o'qituvchi. “4” bo'ladi-ku” deyishibdi o'quvchilar norozi ohangda. O'qituvchi esa: “Bilsalaring nega so'rayapsanlar? Men ham hazillashgandim” deya vaziyatdan osongina chiqib ketibdi. Bu ham yetmagandek o'quvchilarga yangi mavzuni tushuntirib berish o'rniga yechilgan misollarni doskaga yozib: “ko'chirib olinglar” deyishdan nariga o'tmas ekan. O'quvchilarga sezdirmaygina stoli tagidagi kalkulyatorga, formulalar yozilgan daftarchasiga qarab-qarab olarkan.

Kelajagimiz ana shu yoshlar qo'lida-ku. Hozirdan puxta bilim olmasalar, ularning ertasidan nima kutamiz?

Bu shivir-shivirlarni o'qib o'zingizning maktabingizda bo'layotgan ajabtovur voqealar ko'z oldingizga kelgan bo'lsa, hech ikkilanib o'tirmay, bizga yozib yuboring. Manzilini aniq ko'rsatsangiz, mutasaddi aka-opalaringiz tegishli choralarni ko'rishadi. Mabodo ustozlaringiz oldida «chaqma-chaqar» degan nomni olgungiz kelmasa, maktabingizni sir tutishingiz ham mumkin. Baribir gap egasini topadi. Xatlaringizni kutib, shivir-shivirlaringizni marjondek terib yuruvchi opangiz

Munajat SADRIDDINOVA.



Kitob insonning ma'naviy dunyosini boyitadigan muhim omillardan biridir. U har bir insonning, ayniqsa, hamma narsani bilishga qiziquvchi bolajonlarimizning eng yaqin do'sti, hamrohi bo'lishi lozim. Buning uchun esa kitob ham

nashriyotida chop etilgan matbuot “Vatan” nomli she'r va ertaklar to'plamini ham kichikintoylarga o'ziga xos

KITOBBLAR OLAMIGA SAYOHAT


qiziqarli, mazmunli bo'lishi kerak-da.

Yaqinda Rahmonbekovaning “O'zbekiston” nashriyot matbaa qodiy uyida o'zbek, rus va fransuz tillarida chop etilgan “Yangi orol” deb nomlangan kitobi bolajonlarning yaqin do'stiga aylanishga ulgurdi. Bu kitobcha farzandlarimizga lotin alifbosini, rus tilini o'rgatibgina qolmay, fransuz tilining jarangdorligidan ham xabardor etadi. Kitobchani chiroyli, rangli rasmlar bilan bezatilishi uning badiiy qiymatini yanada oshirgan. «Orol dengizi va uning kelajagi» haqidagi bu kitobcha bolajonlarning mo'jaza kutubxonalaridan munosib joy olishiga ishonamiz.

Sevimli shoirimiz Shukrulloning “Sharq” iborat bo'lib, “Sharq”



Kitob javoningizga



qahramonlari shu darajada jonli yaratilganki, har bir o'quvchi o'zini beixtiyor ular bilan birga yurgandek, voqealar rivojida bevosita ishtirok etayotgandek his qiladi o'zini.

“Odobli bo'lish osonmi?”, “Berkinib olgan sirg'acha”, “O... o... Jon”, “Keksa yamoqchi”, “Qadrdon yig'inlar” kabi ertaklarining ajoyib-u g'aroyib qahramonlari go'yo biz bilan birgandek, biz bilan so'zlashayotgandek jonli tasvirlangan bo'lsa, “Bulbuldan salomlar”, “Tong”, “Tekin tomosha”, “Bahor”, “Suv osti dunyosida”, “Tumshuqlar”, “Parrandalar sayli” va boshqa yana o'nlab she'rlari bolalarni sirli bir olamga yetaklaydi.

“Sharq” nashriyot matbaa

aksiyadorlik kompaniyasida nashr etilgan “Navoiy va cho'pon” deb nomlangan kitobcha ham bolajonlarimizga atalgan. Kitobchani nomi bilan nomlanuvchi ertakda o'zbek xalqining buyuk mutafakkiri, she'riyat mulkingning sultoni Alisher Navoiy hayotidan-ajab bir lavha aks ettirilgan bo'lib, uni o'qigan bola Navoiy bobomizning naqadar oliyjanob inson bo'lganliklariga yana bir bor amin bo'ladi.

Mana aziz bolajonlar, Siz bilan kitoblar olamiga xayolan sayohat qildik. Sayohatimiz sizda qiziqish uyg'otdi, endi ana shu kitoblarni topib o'qiysiz, deya umid qilamiz.

Nilufar HAKIMOVA.

CHET ELDAN HECH KAMI YO'Q

Men Toshkent Davlat Qishloq xo'jaligi Irrigatsiya institutiga qarashli "International House - Tashkent" litseyida o'qiyman. Bugun o'zim tahsil olayotgan bilim maskanimni maqtadim. Chunki maqtasa arzigudek jihatlari juda ko'p-da. Bizga ta'lim-tarbiya berayotgan ustozlarimizning bilimdonligi-yu bag'ri kengligini aytmaydizmi?

Litseyimizning boshqa bilim maskanlaridan farqi shundaki, bizda gumanitar va aniq fanlar mukammalroq o'qitiladi. Darsdan bo'sh vaqtlarimizda litseyimiz qoshidagi an'anaviy hamda zamonaviy raqslarni o'rgatuvchi "Milliy raqs" dastasiga, aqlni charxlash, ilojisiz vaziyatlardan chiqib ketish yo'llarini topishda yordam beruvchi "Odisseya razuma", "Odissey of the mind" intellektual o'yinlariga, sahna ko'rinishlari, roman, tragediyalardan lavhalar, sahna ijodlari bilan shug'ullanuvchi "Art studiya" klubiga, litseydagi o'zgarishlar haqida so'zlovchi "Litsey hayoti" yoki "Liceum Life" gazetalari nashr etiladigan to'garaklar mashg'ulotlariga qatnaymiz.

Litseyimiz ingliz tiliga ixtisoslashgani uchun bu til chuqur o'rgatiladi. Ikkinchi til sifatida esa yapon, fransuz va nemis tillarini ham mukammal o'rganib boryapmiz.

Aytaylik, bugun sizning tug'ilgan kuningiz. Kayfiyatingiz a'lo, qalbingizda allanechuk hayajon bilan

Besh yil davomida Amerika Qo'shma Shtatlarida tahsil oldim. Bu ajoyib mamlakat tarixi, madaniyati bilan yaqindan tanishdim. Tilini, tabiatini o'rgandim. Abraham, Joe, Farik, Nik ismli talaygina do'stlar ham orttirdim. Menga juda yoqqan jihati amerikaliklar o'zlarini, ya'ni, inson qadrini har narsadan ustun qo'yishlari bo'ldi.

O'zga yurtida qancha yashagan bo'lsam-da, o'zim tug'ilib o'sgan ona diyorim bir zum ham yodimdan chiqmadi. Vatanim tuprog'ini, qalbi pok odamlarini, qarindoshlarimni, do'stlarimni sog'inib, qo'msab yashadim. Demak, men o'zligimni unutmadim...

O'zbekistonga qaytgach, avvaliga poytaxtimizni taniyolmay qoldim. Qisqagina besh yil ichida uning shunchalar o'zgarib, chiroyli bo'lib ketganini ko'rib juda quvondim. Bu ketishda Amerikadan ham o'zib ketishi hech gap emas.

Davron HAMDAMOV,
"International House -
Tashkent" litseyi o'quvchisi.

maktabga keldingiz. Sizni sinfdoshlaringiz qutlashyapti. Kayfiyatingiz yanada ko'tarilib, quvonchingiz ichingizga sig'may ketadi-a? Agar sizni nafaqat sinfdoshlaringiz, balki butun maktab o'quvchilari qutlashsa-chi?..

Bizda xuddi shunday! Har bir o'quvchining tug'ilgan kunini "Birthday party" bayramlarida butun litseyimiz bilan nishonlaymiz.

Yana bir maqtasa arzigulik jihati shundaki, biz maktab dasturi asosida emas, oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan fanlar asosida tahsil olamiz. Chet tili, tarix kabi fanlardan olgan bilimlarimizni sinflararo, litseylararo hamda

dargumon.

Litseyimizni ko'klarga ko'tarib maqtadim-u, ammo uning tashkilotchisi haqida gapirishni unutibman

Maktabim - seni maqtadim



chog'i?..

Litseyimiz tashkilotchisi va faxri direktorimiz Ilmira opa Ibragimova bo'ladilar. Ularning sa'y-harakatlari tufayli biz uchun yaratilgan shart-sharoitlar Amerikadagi "Oxford", "Harvard", "Cambridge" universitetlaridan hecham qolishmaydi. Bizning Amerika, Angliya va Germaniyada tahsil olishimiz uchun ham barcha imkoniyatlar bor. Ilmira opa yoshliklarida bir necha institutni tugatganlari, Moskva shahrida ham tahsil olib kelganlari uchun ham o'qishning qadriga yetsalar kerak-da. Tabiatan yumshoqko'ngil bo'lsalar-da, litseyi qattiqqo'llik bilan boshqaradilar. Bilim maskanimizda

q o' l g a kiritilayotgan yutuqlarning bari direktorimizning qattiqqo'lligi mahsuli, deb o'ylayman. Menimcha, haqiqiy a h b a r s h u n d a y

bo'lishi kerak. Ulardan ta'lim-tarbiya olib, ulg'aygach, opadek komil inson bo'lish litseyimizning aksariyat o'quvchilari orzusidir.

Nodira SAGATOVning hikoyasini
NARGIZA oqqa ko'chirdi.



maktablararo o'tkaziladigan musobaqalarda sinab, mustahkamlab boramiz. Sport bellashuvlarimiz ham juda qiziqarli, jonli o'tadi. Hech bir maktabda "Etika" yoki "Kulturologiya" fani o'qitilmaydi. Bizda esa bu fanlar maxsus o'qitilib, xulq-atvor qoidalari, milliy madaniyatimiz, shuningdek, o'zga mamlakatlar madaniyati hamda har tomonlama mukammal inson ega bo'lishi lozim bo'lgan odob-ahloq normalari o'rgatiladi. Litseyimizning o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud bo'lib, unga bo'ysunmagan o'quvchilar bu maskanda tahsil olishlari

HAYOTDAMAS, XAYOLDA...

Sochlari to'zg'igan, ko'zlarining atrofi ko'karib, ichi qizarib ketgan bir o'smir onasiga dag'dag'a qilyapti: "Men bilmayman, qayerdan bo'lsa ham menga o'n ming so'm pul topib berasiz. Bo'lmasa, o'tgan galdagidek holingizga maymunlar yig'laydi. O'zingizda yo'q bo'lsa, qo'shni Zumrad xoladan so'rang"...

Ushbu satrlarni o'qib, dahshatga tushayotgandirsiz? To'g'ri, ming afsuski bunday holatlar onda-sonda bo'lsada, hayotda ham uchrab turadi. Lekin yuqoridagi voqea hayotiy emas, poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 297-maktabda "Sihat-salomatlik yili" munosabati bilan o'tkazilgan "To'rt karra yo'q!" nomli tadbirida o'quvchilar tomonidan namoyish etilgan sahna ko'rinishidan parcha, xolos. Ana shunday holatlarning hayotda uchramasligi uchun o'tkazilgan mazkur tadbirida 5-11-sinf o'quvchilari ishtirok etdilar. Yig'ilganlar ular ijrosidagi sahna ko'rinishlarini, tayyorlagan devoriy gazetalarni zo'r qiziqish bilan tomosha qilishdi, OITS, ichkilikbozlik, giyohvandlik va kashandalik kabi illatlarni qoralovchi fikr-mulohazalarni diqqat bilan eshitishdi.

Shuningdek, tuman voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'limi xodimlari hamda mahalla oqsoqollarining chiqishlari, maslahat va o'g'itlarini ham tinglashdi.

Maktab rahbari Zulxumor Azimova boshchiligidagi maktabning ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Lola Samatovanning sa'y-harakatlari bilan o'tkazilgan tadbir o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi.

MUXBIRIMIZ.

Ko'chada yolg'iz atrofnii kuzatib ketayotgandim. Havo aynib, yomg'ir tomchilay boshladi. Tasodifan yerda yotgan daftarchaga ko'zim tushib qoldi.

Yomg'ir sharros quyayotganiga qaramay negadir daftarni olgim keldi. Panaga o'tdim-da, daftarni varaqlay boshladim. Uning oxirgi varag'idagi suv tegmagan chiroyli yozuvlarni shosha-pisha o'qiy boshladim:

"Salom qadrdon kundaligim, kecha yana dadam ichib keldilar va oyijonimni rosa urdilar. Dadajon, oyimni urmang, desam oyimga

qo'shib meni ham ura ketdilar. Doim uyimizda janjal bo'ladi, sababini sira tushunolmayman. Tengqurlarimdek maktabga ham bora olmayman, sababi o'zingga ma'lum, oyoqlarim ishlamaydi. Har tong derazadan ko'cha tomonga qarayman. Qiy-chuv qilib maktabga ketayotgan qizlarga havasim keladi. Mening ham dugonalarim bo'lishini juda-juda xohlardim. Afsuski, mening borligimni ham hech kim bilmaydi.

Shu uyga ko'chib kelganimizdan buyon har kuni janjal, to'polon.

Ilgari buvimnikida yaxshi yashardik.

Mahallada o'rtoqlarim ham bor edi.

Dadamning giyohvand bo'lib

qolganlaridan, aroq ichib, to'polon

qilaverishlaridan bezor bo'lib, bizni boshqa yerga ko'chirib yuborishdi. Janjallardan bezib, ko'chaga chiqib ketay desam, oyoqlarim yurmaydi. Bir kuni: "Katta bo'lsam, oyoqlarimni operatsiya qildiraman" desam, oyijonim yig'lab yubordilar. Chunki tug'ma nogiron bo'lganim uchun hech qachon yura olmas ekanman...

Ertalab oyim kiyimlarimizni yig'ib, jomadonga joyladilar, qishloqdagi buvimnikiga ketar ekanmiz. Endi dadam


bilan birga yashamas ekanmiz. Bu yangilikdan shunchalar quvondimki, asti qo'yaverasiz.

Endi hech kim meni "giyohvand, araqxo'ring qizi" deb mazax qilmaydi. Qishloqda hech kimga og'irligim tushmasligi uchun oyimga o'xshab tikuvchilik qilmoqchiman. Hademay yo'lga tushamiz. Ana, oyim chaqirib qoldilar, xayr endi mening qadrdon kundaligim. Seni tashlab yuborayotganim uchun mendan ranjima. Shaharda dadam bilan yashagan og'ir kunlarimni eslamaslikni xohlayman. Sen esa menga ana shu mungli o'tmishimni eslatib turasan-da...

Kundalikdagi so'nggi misralarni o'qiy olmadim, ko'zlarimga to'lgan jiqqa yosh bunga yo'l qo'ymadi.

Nigora MIRSODIQOVA.

«XAYR, QADRDON KUNDALIGIM»



Mening bo'sh vaqtim


NAVBAT - TIKUVCHILIKKA



– Men kichkinaligimdan turli ko'ylaklarni rasmini chizishni yaxshi ko'rardim. Bora-bora bu qiziqish kuchayib, hozir turli rusumdagi ko'ylaklarning dizaynlarini yarata boshladim. Chizgan ko'ylaklarimni ustozim Dilbar opaga ko'rsataman, ular ham o'z maslahatlarini mendan ayamaydilar. Endi o'zim yaratgan modalar asosida ko'ylaklar tikishga harakat qilaman. Agar chizgan rasmlarim dugonalarimga yoqsa, juda xursand bo'lardim.

Nodira JONIBEKOVA,
Sirdaryo viloyati, Sardoba tumanidagi
16-o'rta maktab o'quvchisi.

SIZ HAM PISHIRIB KO'RING



Kamola ELMIRZAYEVA,
Surxondaryo viloyati, Denov
tumanidagi 30-maktabning 6- «E»
sinf o'quvchisi:

Munavvar ASILBEKOVA,
Jizzax viloyati, Paxtakor tumani,
6-sinf o'quvchisi:


– Bo'sh vaqtga mazmun naqd deganlaridek, tumanimizdagi markazda “Mazali taom” o'quv markazi ochildi. Ta'til vaqti bo'lgani uchun beshta dugonamni olib, shirin taomlar pishirish sirlarini o'rganishga bel bog'ladim. Markazga kelganimizda bu yerda bizni shirinsuhan Dilorom opa kutib oldilar. Ular milliy va Yevropa taomlarini pishirish va dasturxonga tortish sirlarini o'rgatishlarini aytdilar. Buning ustiga bu mashg'ulotlar bepul edi. Darslarga avvaliga 15 nafar qiz qatnayotgandik. Oradan ko'p vaqt o'tmay, qizlar soni 30 nafarga yetdi. Shuning uchun ustozimiz Dilorom opa bizni ikki guruhga bo'ldilar. Endi qizlar vaqtlariga qarab, ya'ni, tushgacha yoki tushdan keyin kelishlari mumkin. Ta'til vaqtida bo'sh qolmay, turli taomlarni pishirishni o'rgananimiz ayni muddao bo'ldi. Men sizlarga mashg'ulotlarda o'rgangan “Qiy mali o'rama” taomini yuborayapman. Bu taomni tayyorlashga urinib ko'ring. Qo'lingizdan kelishi aniq.

Masalliqlar: qiyma, tuxum, pomidor, pishloq. O'ramasi uchun: tuxum, tuz, un. Qiymaga tuxum chaqib, ziravor, tuz solib, yaxshilab urib pishiqlaysiz. Sellofan yoyib, ustiga tayyor qiymani dumaloq shaklda yoyasiz. Uning ichiga pishloq, pomidorni bir bo'lakdan terib chiqasiz va sellofan yordamida qiymani o'raysiz. Dumaloqlangan qiymani o'rash uchun tovada ozroq yog' qizdirib, tuxum bilan unni quymoq singari aralashtirasiz va tovaga quyib, ikkala tomonini pishirib olasiz. Quymoqqa qiymali o'ramani o'raysiz. Qozonchaga yog' solib qizdirib, unga tomat pastasi solasiz va tezda suv quyib, o'ramani joylashtirasiz. 25 daqiqa kuting va antiqa taomingiz tayyor!

OLTIN KUZ SAXOVATI

Laylo BOZOROVA, Yangiyer
shahri, 3- sinf o'quvchisi:

– Men 3- «B» sinfida o'qiymen. Darslardan bo'sh qoldim degandan qo'llarimga qalam olib, oltin kuz saxovati bo'lmish turli mevalarning rasmini chizishni yoqtiraman. Hozir yurtimizda kuz fasli. Hamma meva-yu sabzavotlar g'arq pishgan. Dehqon bobo umid bilan yerga qadagan urug'ini bugun hosilini yig'moqda. Lekin mevalarni doimo yuvib yeyish yodingizdan chiqib qolmasin. Chunki buning oqibatlari yomon bo'lishi mumkin. Axir “Sog'liging o'z qo'lingda” deb bejiz aytishmasa kerak.





– Men bo'sh vaqtlarimda ertak kitoblari o'qishni, o'qigan ertaklarim asosida rasmlar ishlashni yoqtiraman. Quyida tengdoshlarimga o'zim yozgan ertakni yuborayapman:

ARI VA CHUMOLI

Qadim zamonlarda ari bir chumoli bilan do'st bo'lib qolishibdi. Ular kunora gaplashib, ari osmondagi, chumoli esa yerdagi yangiliklari bilan bo'lishishar ekan. Arining do'stlari uning ustidan kulishar, chumolidan o'zga do'st yo'qmi senga deya, xafa qilishar ekan. Kunlardan bir kun arining do'stlari chumolidan voz kechishini, bo'lmasa iniga qo'ymasliklarini aytibdi.

Ari xafa bo'lib uchib ketayotib, ariqqa tushib ketibdi. Dod solib oqib ketayotgan arining yoniga boshqa arilar yopirilib kelishibdi, ammo qanotlarining ho'l bo'lishidan cho'chib, hech kim suvga sho'ng'imabdi. Shu payt bu gapdan xabar topgan chumoli do'stlari bilan ariq yoqalab yugurishibdi va ariq ichida ilinib turgan xasga chirmashishib, arini oqib kelishini poylashibdi. Arini uzoqdan ko'rgan chumolilar jipslashib, uni tutib olishibdi va qirg'oqqa olib chiqib, qanotlarini quritib olishida yordam berishibdi. Arilar chumoli o'zini xavfga qo'yib, do'stini qutqarib qolganini ko'rib, unga rahmatlar aytishibdi va ular yana ham qalinroq do'stlashib olishibdi.



Tengdoshlaring ijodi

O'ZBEKISTONIM!

Shon-u shavkatlarga to'lgan diyorim,
Iqboli quyoshdek kulgan diyorim,
Mustaqil va ozod bo'lgan diyorim,
Ona yurtim mening, O'zbekistonim!

Hur kelajak sari olg'a intilgan,
Ajdodlari ruhini muqaddas bilgan,
O'tmishini eslab yuragin tilgan,
Ona yurtim mening, O'zbekistonim!

Senda bor buyuklar qoldirgan izlar,
Ularning munosib avlodi bizlar,
Sening kelajaging – biz o'g'il-qizlar,
Ota yurtim mening, O'zbekistonim!

Yulduz YUSUPOVA.

UNI TASHLAB
KETGAN EDI
BAHORI...

Daraxtning shoxida sariq yaproqlar,
Sarg'aygan, to'kilib ketgan ohori.
Bemajol aylanib tushmoqda yerga,
Uni tashlab ketgan edi bahori.
Ko'zida yoshi-yu qalbida armon,
Bahorni sog'inib, intiq kutmoqda.
Nailoj, ohlarin tinglamas hech zog',
Dard-u alamlarin ichga yutmoqda...
Borliqni yashnatib ko'klam ham keldi,
Dillarga xush yoqar iliq nahori.
Ammo xazon asliga qaytolmay
garang,
Uni tashlab ketgan edi bahori...

Durdonabegim QODIROVA,
Toshkent shahar, Uchtepa
tumanidagi
129 - maktabning 8 - «B» sinf
o'quvchisi.

AYOL

Ayolni go'zallik timsoli derlar,
Bag'ri keng daryodir misoli derlar.
Qalbida o'rin yo'q aslo g'uborga,
Yuragi limmo-lim nomus-u orga.

Ezgu-niyat tilar ayol tillari,
Halol rizq yaratar uning qo'llari.
Duoga to'liqdir ochiq dillari,
Pok bo'lsin hamisha ayol yo'llari.

Ko'zlaridan mehr sochadi ayol,
Hayot eshigini ochadi ayol.
Chehralari nurli, kulgu arimas,
Shundanmi, qalbi yosh, aslo qarimas.

Rahimaxon XUDOYNAROVA,
Farg'ona viloyati, Dang'ara
tumanidagi 31-maktabning 9 - «A» sinf
o'quvchisi.

XAMIRTURUSH

Tushuntirdi Akbarga,
Bobosi ushlab xaskash:
“Yodingda tut, yer xamir,
O'g'it bu - xamirturush”.
Buni eshitib dedi
Bizning qaqajon Kumush:
“Katta bo'lsam oyimdek,
Pul ketkazmayman unga.
Rosa elab tuproqni,
Har tong yopaman kulcha”.

Umida HUSNIDDINOVA,
poytaxtdagi
223 - maktabning,
11 - sinf o'quvchisi.

Chamanda gul

«Балдырған»

Құрметті балалар!

Сендер үшін — «Тонг юлдузи» газетінің бетінен «Балдырған» айдарын арнайы ашып отырмыз. Бұл беттен сендер әңгімелер мен ертегілер, жұмбақтар мен жаңылтпаштар тағы да басқа көптеген қызықты оқиғаларды оқи аласыңдар. Сонымен қатар өздерің де мақала, өлең немесе болған оқиғалар туралы жазып, газетіміздің тұрақты авторларына айналуларың мүмкін. Хат жазып, хабарласыңдар.

Іске сәт, құрметті балдырған!

Редакция алқасы

ТҮЛКІ, ТАСБАҚА
ЖӘНЕ КЕНЕ

(Ертегі)

Баяғыда түлкі, тасбақа, кене үшеуі дос болыпты. Бір күні үшеуі келе жатса алдарында бір уыс тары жатыр екен. Үшеуі көп ойланып, ақыры:

Мұны тұқым қылып көктемде жерге егіп, көбейтіп, күзде тендей бөліп алайық, — деп келісіпті.

Сол кезде түлкі қулыққа басып бір жарды көреді де:

— Мен осы жарды сүйей тұрайын, болмаса құлап кетер, — деп жардың астына саялап жатып алады.

Тасбақа байғұс жерді тырналап, кене болса тарыны жиып әлекке түсіп үйеді. Сөйтіп көп бейнесігеп екеуі тарыны егеді. Күз келгенде тағы да екеуі ғана піскен өнімді орып, жинап алады. Мұны бастырғанда бір аяқ тары болады. Енді жинаған тарыны бөлісетін кезде баяғы түлкіні шақырады. Ол керемет болып піскен тарыны көре салып тағы да қулыққа басады да былай дейді.

— Жок. Бұл тарыны үшеуімізге тендей бөлуге болмайды. Үшке бөлген соң әрқайсысымызға қаншадан тиеді дейсің. Одан да үшеуіміз жарысып қай озғанымыз алайық.

— Мақұл! — деп үшеуі бір ауыздан келіседі. Сөйтіп, көмбенін басына қатарласып тұра қалады. Түлкі:

— Ал кеттік, — деп белгі бере салады да өзі жан дәрмен жүгіре жөнеледі. Түлкінің қулығын сезіп қалған кене сол сәтте оның башпайына жабысып бірге кетеді. Түлкі болса бар күшін салып мөреге бірінші жетіп, қырмандағы тарының бәрін алуға асығады. Ол мөреге жетіп қырманға қол сала бергенде кене:

— Ау, сорлы, мені басып кетесің бе? — дейді.

— Ей, сен қашан келгенсің? — дейді түлкі таң қалып.

— Сен бағана ал кеттік дегенде-ақ мен осында келіп қойғанмын! — дейді кене.

Екеуі дауласып жатқанда аузы-мұрнына құм толып, терлеп-тепшіп, үсті-басы қан-қан болып тасбақа да жетеді. Келе сала:

— Ойбай, түлкі, мен бір пәле көріп келдім! Жана сендердің арттарыңнан екі қарагер аты бар, қара бүркіті бар және екі тазысы бар екі адам келіп, «жаңа ғана

сенің қасыңда болған түлкі қайда кетті? Жаныңның барында тез тауып бер», — деп менің аузы-мұрнымды қан қылып таяққа жығып кетті. Мен сонда да сенің қайда кеткенінді айтқан жоқпын. Бірақ олар бәрібір осылай келе жатыр, — дейді тасбақа аптығып.

Түлкі:

— Айналайындар-ай, мені айта көрмендер! Мына тарыны екеуің тең бөліп алыңдар. Мен сендерге риза болайын. Олар келсе: «Қайда кеткенін білмейміз» дедер, — деп алды-артына қарамай тұра қашыпты.

Сөйтіп тасбақа мен кене өздерінің адал еңбектерімен еккен тарысын тендей бөліп алып, қыс бойы азық қылып алаңсыз өмір сүріпті.

ЖАСЫРЫНБАҚ

Бұл ойын жаздығүні, ай жарығында шөптесін алаңдарда, ал күндіз қора-қопсысы көп, яғни жасырынатын қуысы бар жерлерде өткізіледі.

Ойнаушылар көмбеге жиналғаннан кейін санаған саусақ кімге түссе, сол адам іздеуші, яғни жасырынғандарды көмбеге тауып әкелуші болады. Кейде іздеуші мен ойын жүргізуші такпак айту арқылы белгілейді.

Бірім,

Екім,

Тығыл!

Бекім!

Мен санайын:

Сен бол дайын.

Сары шымшық,

Сыртылдауық.

ЖҰМБАҚТАР

Қара сиырым қарап тұр,
Қызыл сиырым жалап тұр.

(Қазан мен от)

Бір үйде тұрады екен елу батыр,
Үй сыртына сүйенсе-ақ өліп жатыр.

(Сіріңке).

Сен тұр,

Сен шық!

Соңғы «сен» сөзі келген адам ойын жүргізуші де, кезегі «шық» сөзіне келген бала іздеуші болады. Ойын жүргізуші іздеушінің көзін басып тұрып қатты айқайлап, елуге дейін санайды да (осы кезде ойнаушылар жасырынып үлгірулері керек), іздеушіні қоя береді. Ол жасырынған ойыншыларды табуға кіріседі. Іздеуші екінші рет кезекші болмас үшін бірінші көрген ойыншыдан көмбеге бұрын келіп хабар беруі керек. Іздеуші көрген ойыншысын сирағынан алып тұрғызуы шарт емес, ең бірінші көрген беттен-ақ «Мұнда» деп айқай салып көмбеге қарай жүгіруі керек. Содан кейін асықпай басқаларын таба береді. Тағы бір ескеретін жай, іздеуші көрмейінше, «Мұнда!» демейінше өз бетінше жүгіріп келмеуі керек.

Балаларға базарлық

БАҚЫТ ДЕГЕН
НЕ?

Бақыт, Серік, Ербол бір көшенің тұрғындары. Үшеуі бірге оқиды. Сабақ өтетін апайын бәрі де жақсы көреді. Бірде апайы адам есімдерінің мәні жөнінде тәрбие сағатын өткізді.

— Ербол есімі азамат бол, ер жігіт бол деген мағынаны білдіреді, — деді апайы.

— Ал Серік атауы дүниеге келген перзентке серік болсын деген ниеттен туған, — деді және де.

— Бақыт деген ше? — деді Бақыт қызыққанын жасыра алмай.

— Бақыт — бұл әр баланың ой-арманының орындалуы. Қуанышты күй кешуі. Сол ниеті іске асса, бақытқа қол жеткені. Әркімде арман да, ой да көп. Сондықтан бақыт та сан алуан, — деді апайы.

Бақыт үйіне келді. Атасынан: — Ата, бақыт деген не? — деп сұрады.

— Сенің аман-сау жүргенің мен үшін бақыт, айналайын. Бақыттың үлкені — осы.

— Апай «Бақыт деген — әр баланың ой-арманының орындалуы» деді. Менің арманым — сіздің жасыңыздың жүзге жеткенін көру, — деді Бақыт.

— Арманыңа жет, — деді атасы немересінің шын пейіліне шаттанып.

Бақыт үшін дәл осы сәт нағыз бақыт еді.

АЙТЫЛ-АН СЫР

Жазғы демалыста Еңлік ауылға келді. Атасы мен әжесін қатты сағыныпты. Қалада тар бөлме ішін айнала шауып жүрген Еңлік кең ауланы думандатты. Көрші қыздармен бірге жарыса жүгірді. Үйшік жасап, қуыршақтарға матадан тігілген түрлі көйлектерді кигізіп, мәз-майрам болды. Таза ауада сергіп, жеміс-жидектерді керегінше жегендіктен бе, екі беті топ-томпақ боп өсе бастады.

Қолдары босаған сәтте атасы мен әжесі Еңлікті әңгімеге тартады. Сөйлегенін қызықтайды.

— Еңлік-ау, қаладағы үйіңе барасың ба?

— Кейін барайыншы.

— Әкен мен ананды сағынбадың ба?

— Сағындым. Бірақ ауылдан әлі зеріккен жоқпын.

— Әкен жақсы ма, шешен жақсы ма?

— Екеуі де жақсы.

Сөйтті де, Еңлік бүртия қалып:

— Бірақ екеуі ұрыса береді, — деді мұнайып.

Келер күні кешке қаладағы Еңліктің әке-шешесі телефон соқты.

Аман-саулықтан соң, Еңліктің атасы мен әжесі өздерінің арасында болған әңгімені баласы мен келінінен жасырмады.

— Жас баланың көзінше неге ұрыса бересіңдер? Не жетпейді? — деді атасы.

— Сендердің ешнәрселерін кетпейді. Қазір ұрыссандар, сәлден соң ұмытып кетесіңдер. Ал жас бүлдіршіннің жүрегі жараланады, — деді әжесі.

— Біздің ұрысатынымызды қайдан есіттіңіздер, — деді Еңліктің әкесі.

— Балалы үйде сыр сақталмайды. Еңліктің есі кіріп қалған. Бұдан былай ондай әдетті қойыңдар, — деп атасы ескерте сөйледі.

Содан соң телефон тұтқасын атасы Еңлікке ұстатты.

— Еңлік қалкам, әке-шешенмен сөйлесе ғой. Мә, жаным.

Еңлік папасы және мамасымен едәуір сөйлесті. Ауылдағы жаңалықтарды тізіп айтты. Телефон тұтқасын орнына қойғаннан кейін:

— Әкем мен шешем ауылда жазғы демалыс біткенше ойнап, демала бер, — деді.

— Әнеки, бала ғой, естігенін жеткізгенше асығып тұрады. Көңілдері аппақ бұлардың, — деп әжесі жүзі жарқырай түскен Еңлікті дастарқан басына шақырды.

Нұрғали ҚАДЫРБАЕВ,
жазушы.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

NAJOT ALLOHDAN

Oqtosh menga o'sha olis va yorqin bolalik xotiralarimni eslatib yuborgan edi. Endi men bog'-hovliga Oqtoshniyam g'amini yeb boraman. Bir haftalik suyak-sayoqlarni yig'aman. Qotgan-qutgan nonlar... Boymurod akaning urg'ochi itning vafodor bo'lishi haqidagi gaplari to'g'ri chiqdi. Oqtosh daydib u yoq bu yoqqa ketib qolmadi. Qachon borsam sadoqat bilan ancha beridan kutib oladi. Tavba, deymen o'zimga-o'zim, poyezddan tushishim bilanoq, hidimni olsa kerak-da. Jonivor cho'ltoq dumini likillatib uzoqdan chopib keladi. Hozir itligiga borib, suykalani tahoratimni sindiradiyov, deb xavotirga tushib qolaman. Yo'q, Oqtosh fikrimni uqqandek ikki qadam narida tappa yerga yotib, ko'zlari munchoqdek yiltirab, tumshug'ini ko'tarib guvranadi.

— Ha jonivor, yaxshi yuribsanmi, «Bog'dod» da nima gaplar, tinchlikmi? -deb qo'yaman.

Oqtosh gaplarimni aniq-tiniq tushunadi, sakrab turadi-da, «Bog'dodda tinchlik» degandek o'ynoqlab oldinga, tushib, yo'l boshlaydi. Bog'-hovlidagi hayotim Oqtoshni yaxshilab mehmon qilishdan boshlanadi. U yalog'ining oldiga borib, sabr-toqat bilan cho'nqayib o'tirib oladi. Bilaman, judayam ochiqqan, ammo uning toqatini ko'rib, hayratga tushaman. Odamda bunchalik sabr-toqat bo'lmasa kerak. Idishiga siylovi tushgandan keyin ham yutoqib, ochko'zlarcha tashlanmaydi. Uzoqlashishimni kutadi. Keyin siylovni bir hidlaydi-da, menga albatta, qarab qo'yadi. Bu uning

minnatdorchilik bildirgani.

Oqtosh poyezdgacha kuzatib qo'yishni kanda qilmas edi. Endi u poyezdning qorasi yo'qolguncha perronda o'tirib qolmas, vagonga chiqishim bilan pana-pastqam yo'llar bilan kelgan yo'liga qarab chopar edi. Yo'lda daydi itlar ko'p, ba'zilariga menga ishonibmi, bir-ikki akkillab ham qo'ygan. Endi ulardan omon-eson o'tib bog'-hovliga yetib olishi kerak. Faqat ko'chadagi mashinalarga tashlanishidan qo'rqardim.

Ajriqdan tozalagan


aytib, o'zim qurishga niyat qildim. Bular poydevor kavlash, g'isht quyish, devor urishdan iborat ishlar edi. Sandalli uy odatda kengroq bo'lishi kerak. Chunki to'rt tarafida odamlar o'tirishini hisobga olganda, ancha-muncha joyni egallab qo'yadi. Keyin

OSMONDAN TUSHGAN OQTOSH

(yoxud jinlar olami)



Erkin MALIKOV.



bir parcha yerimga jo'xori, bodring ekib, uy qurishni boshlab yubordim. Ha, qurilish ishiga biróvni aralashtirgim kelmadi. Loyihasidan tortib, to yog'och ishigacha bismillo

mo'rili o'choq ham salkam bir metr joyni egallaydi. U devorning o'rtasiga qurilishi, ikki chekkasida bir tomoniga o'tin-cho'p, ikkinchi tomoniga qozon-u idish-tovoq qo'yiladigan joylari bo'lishi kerak. Shuning uchun sandalli uyni to'rtga-to'rt, keyingi katta xonani to'rtga-besh qilib reja oldim. Katta xonaning yarim metri taxmonga chiqib, to'rt yarmiga-to'rt metr chorsi bo'ldi. Yana bu xonada muzlatgich ham bo'lishini o'ylardim. Muzlatgich uzunligi bir metr, eni oltmish, chuqurligi yetmish santimetr bo'lgan oddiy o'ra. O'raning to'rt tomoni yarim g'isht qalinligida urilib, ichi sement qorishmasi bilan suvalgach, uning tashqi gir aylanasi dan yarim g'isht sig'adigan xandaq qaziladi. U qish chillasining qori bilan to'latiladi. Chillada yoqqan qorning joni qattiq va quruq bo'ladi. Qor uchun salafan xaltachalar qo'l kelishi mumkin. Men bolaligimda ko'rgan muzlatgich menikiday uyning ichidamas, hovlida bo'lardi. U kattakon xum bo'lib, atrofi sholi poxolu muz bilan o'ralgan, tuproq tortib ko'milgan edi. Yozda bu xumda issiqda tez aynib qoladigan narsalar saqlanardi. Yoz chillasida xumning gir aylanasi dan bir chekkasi ochilib, muz parchasi olinar, doriga so'rab kelganlarga berilardi. Muzni shu

yerning o'zida qirg'ichda qirib yeyilardi. Ko'proq qari odamlar so'rab kelishardi. U qanday dardga da'vo bo'lganini hali-hanuz bilolmayman. Har holda yoz kunlari yurakka da'vo bo'lsa kerak-da. U paytlarda qishda hovuzdagi suvlar bir qarich-bir qarich qalinlikda muzlardi...

Men bog'-hovlimga haligidek oxon-jamali uy qurishni istamas edim. Ularda hech bir qulaylik yo'q. Kech kuz, uch oy qish, erta bahor bu uylarda yashab bo'lmaydi. Yoz kunlari muzlatgich bo'lmasa, ayniydigan narsalarni qayerda saqlaysan? Buning ustiga bog'-hovliga elektr kelmagan. Ishqilib ko'nglinga ota-bobolarimiz qadimda qanday yashagan bo'lsa, shunday yashagim kelib qolgan edi.

Mening bu rejalarimdan qo'shnilarim mantiq axtarib, oldiniga qiziqib eshitishdi-yu, keyiniga xom-xayolga yo'yib, «akademik bo'b keting-e» deb ustimdan kishi bilmas kulib qo'yishdi. Ularga qurilish rejalarimdan ko'ra ko'proq Oqtosh haqidagi hikoyalarim yoqardi. «Oqtoshingiz dachamizdagi jinlarni haydavoribdi, deb eshitdim... agar shu rost bo'sa, zap ish bo'pti-da»... «Eee... u jonivoringiz yana it go'shti yegan odamniyam bilarkan-a, yozuvchi Boris Pakka ro'para qilib ko'rish kerak ekan». «Oqtosh xuddi sizzi odamdek kutib olib, odamdek istansagacha kuzatib qo'yarmisha-a, vah, anovni qarang»...

Qurilish tufayli shirindan-shirin tashvishlarim ko'paygan edi. Juma kunlari ishdan keyinoq kechki poyezdda jo'navoraman. Yoz bo'lgach, qorong'i tushmasdanoq yetib kelaman. Boshqalar shanba kuni ertalabki poyezdga chiqishar, o'n birlarga yaqin yetib kelishardi. Kunning yarmi boy berilardi. Men juma kuniyoq loy qorib shanba kuni sahardan g'isht quyishga tushardim. G'isht katta-katta - har biri oltita g'ishtning o'rnini bosadigan «polvon g'isht»lardan edi. «Yoz endi boshlandi-yu, shoshmang» deb ba'zi bemalolxo'jalar o'zlaricha meni ayagan bo'lishardi. «Bu polvon g'ishtlar yoz chillasida bir kunda quriydi, chilladan keyin o'n kundayam qurimaydi, nahotki shungayam ko'p aql kerak bo'lsa», degandek qarab qo'yardim. «E, gap bu yoqda deng» deya o'zlarini ustidan o'zlari kulgandek osongina holatdan chiqib ketishardi. G'isht quyish ular achinganchalik og'ir emas edi. Men o'zlashtirgan yerdan chiqqan ajriq ildizlarini loyga qo'shar edim. Bu ildizlar loyni shunday tishlab olardiki, bolta bilan chopib ushatib bo'lmasidi. «Bu ajriqni ildizi borib turgan armatura ekan-u, biz noshudlar shunday qurilish materialini kuydirib yuboribmiz-a», deb afsus chekkanlar bo'ldi. Shunchaki ko'nglim uchun aytishdimi, rostdanmi, ishqilib bu ishimgayam besh ketgandek bo'lishdi. Ana shunaqa gaplar, yozuvchi do'stlarim oldida itimam, o'zimam kundan-kunga mashhurlashib borardik.

(Davomi bor).

“KELAJAK TONGI”DA NIMA GAP?

Har tong havo to'lqinlari orqali yangrayotgan “Kelajak tongi” eshittirishi bolajonlarning eng sevimli eshittirishlaridan biri hisoblanadi. “Bola va dunyo”, “Kichkintoy-shirintoy”, “Sog'lomjon-polvonjon”, “Jamalak yigitchalar”, “Xo'rozqand”, “Belbog'li”, “Yaxshi dam” kabi mavzudagi tinglayotgan davomida yuradi. Bu yerda opalaringiz va sizlardan fikr-mamnun bo'lishmoqda. Ular eshittirishlar tayyorlashga harakat qilishayapti. Efirga uzatilayotgan turli ma'lumotlar, qiziqarli sahifalar, mazmunli hikoyalar, maslahatlar, turli xil radiotestlar barcha bolajonlarni o'ziga jalb etadi. Shuningdek, ajoyib kuy va qo'shiqlar, tengdoshlarimizning fikrlari yozilgan ovoqli yozuvlarni tinglaysiz. Shu yilning oktabr oyidan boshlab birinchi kanalda soat 14-⁵⁰ da ushbu studiyaning “Kamalak” sahifasi efirga uzatila boshladi. Besh daqiqalik bu ilova dushanbadan yakshanba kunigacha berib boriladi. Undagi yangi-yangi qiziqarli ruknlar albatta sizning hamrohingiz bo'ladi. Ha, yana bir gap, ushbu eshittirish haqidagi fikr-mulohazalaringizni ham albatta yozib yuboring.



Nazokat AHMEDOVA.



CHEKISH HUSNNI BUZADI

Aziz bolajonlar, yosh bo'lsa-da, dilbar qo'shiqlari bilan o'z muxlislarini topgan Sharof Muqimov yaqinda "Jonim seni yoxud... Egizaklar" filmida yaratgan Jasur obrazi orqali yanada mashhur bo'lib qoldi. Biz bu san'atkorning bolalikdagi orzu-istaklari bilan qiziqdik.

– Agar bir narsani orzu qilsam, unga tezroq yetishsam deb intildim. Esimni taniganimdan so'ng ko'chadagi katta bolalarga havas qilib, qani edi o'zimning ham velosipedim bo'lsa, hammaga maqtanib ko'cha changitib uchib yursam, derdim. Lekin bu haqda uydagilarga aytmagandim.

Bir kuni tog'amning 12 yosh, muchal yoshimga velosiped sovg'a qilmoqchi ekanliklarini eshitib qoldim. Kun sanab tug'ilgan kunimni kuta boshladim. Negadir tog'am tug'ilgan kunimda kela olmay, ertasi kuni kelganlar. O'shanda ertalabgacha tog'amni kutib uxlamay chiqqandim.

Orzularim juda ko'p bo'lgan. Shifokorlikka qiziqqanman-u, lekin ukoldan qo'rqqanim uchun bu sohani "aylanib" o'tganman. Qo'shiq kuylashga, kinolarning qanday olinishiga qiziqardim. Kechqurunlari oyim uxla desalar ham, pardalarni tushirib, eshigimni berkitib olardimda, magnitofonni baland qilib, oynaga qarab taqlid qilib qo'shiqlar kuylardim. Eng ko'p eshitadiganlarim "Maftun", "Shum bola" guruhlari edi. Mana o'sha paytdagi orzular ushlab, oyna oldida emas, katta sahnalarda qo'shiq aytish nasib qildi. «Intilganga tole yor» deganlari shu bo'lsa kerak-da.

– **Maktabda o'qishlaringiz qanday bo'lgan?**

– Oyim uchun "5" ga o'qirdim. 6-sinf gacha faqatgina a'lo baholarga o'qiganman. Keyin algebra, kimyo, geometriya, fizika kabi qiyin fanlar o'tila boshlagach, baholarim 3-4ga tushib ketgan. Opam bilan ayrim sabablarga ko'ra 223-maktabda o'qishimizga to'g'ri kelgan. U maktab matematikaga ixtisoslashgan ekan. Biz bilan direktorning o'zi savol-

javob qilgan. Opa-uka matematikadan "nol"miz. Javob berayotganda opam javobga «sin» deb bersa, men «cos» deb berganman. Keyingi savollariga xuddi shuni teskarisini yozib berganmiz. Biz matematikani bilmasak ham,

Uchrashuv

vaziyatdan chiqib ketganimizni ko'rgan maktab rahbari topqirligimiz uchun o'qishga qabul qilganlar.

– **San'atkor bo'lishingizga oilangizdagilar qanday qarashgan?**

– Eng birinchi dadam qarshi bo'lganlar. Oyim rozi bo'lganlar. Studiyaga ketyapman desam, dadamni jahllari chiqardi. Dadam uncha qattiqqo'l emaslar. Bolaga

bolacha munosabatda bo'ladilar. Bolaligimda varrak uchirishni yaxshi ko'rardim. Dadam bo'yimdan baland varraklarni yasab berib kun tig'ida men bilan baravar tom da varrak uchirardilar. San'atkor bo'lishimga qarshi bo'lganlari esa bizning avlodda san'atkor bo'lmaganligidir. Lekin bir kuni ovoz yozish studiyasidan kelsam, dadam xursand o'tiribdilar. Qayerdan kelayotganligimni bilsalar urushadilar deb o'ylasam, barakalla, deb qo'yidilar. Hayron qoldim. Keyin bilsam uyimizga muxlislar qo'ng'iroq qilib, shunday o'g'il o'stirib, xalq xizmatiga qo'yganingiz uchun sizga katta rahmat, deyishibdi.

Ota-ona uchun farzand ortidan kelgan duolardan ortig'i bo'lmasa kerak. Farzand uchun ham eng birinchi navbatda albatta ota-onaning duosi...

– **Sportga munosabatingiz?**

– Inson yosh ulg'aygani sari turli kasalliklar kelib chiqaveradi. Doimo sport bilan shug'ullanib turish kerak. Men karatega qatnashganman. Yana bo'yim pastligi uchun bolaligimda "Kaltabaqay" degan laqabim ham bor edi. Shuning uchun stadiona borib turnikka tortildim. Shunday bo'yim cho'zilib ketgan va laqabim ham bo'yimga "yarashmay" qolgan. Sport bilan shug'ullangan bolalar turli inson hayotini og'ulovchi vositalardan yiroq bo'lishadi deb bilaman. Masalan, sigaretadan. Yoshligimdan dadam menga sigaret chekish katta gunoh deb uqtirib kelganlar. Mening nazdimda, chekish – husnni buzadi.

– **Muxlisu muxlisalaringizga tilaklaringiz.**

– Bolalikda yaxshi narsalarni orzu qilishsa, albatta erishishadi. Barcha orzulari ro'yobga chiqishini va a'lo baholarga o'qishlarini tilayman.

Ma'suda ABDOQODIR qizi
suhbatlashdi.

TOPISHMOQLAR

Qish fasli sovuq, ayoz,
Bir narsa bor, yoqsang yoz.
Unda harorat ancha,
Jonning rohati – ...



Kiyiladi oyoqqa,
Kiyib boray qayoqqa?
Issiq turadi oyoq,
Nomidir uning – ...



Kiyimlarni ataylab,
Silab chiqar avaylab.
Tekis bo'ladi gazmol,
Nomidir uning – ...



Qulog'ini buraymiz,
So'ng miriqib tinglaymiz.
Undan chiqar bir sado,
Ongingda kuychi paydo,
Nomidir uning – ...



Munisa KOMILOVA, Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 14 - maktabning 5 - "A" sinf o'quvchisi.

TONG
yulduzi

O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida

022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.

Hajmi A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 13558

Buyurtma N: J 17.

Dizayner va sahifalovchi:

Fazliddin
SHAYADGAROV.
Navbatchi:
Ozoda
TURSUNBOYEVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-38-10
144-63-08

Tel./ faks:
(99871) 144-24-45